

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ROSSIYANING BIRINCHI PREZIDENTI B. N. YELSEN
NOMIDAGI URAL FEDERAL UNIVERSITETI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

INSON FAROVONLIGINI O'RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV

xalqaro ilmiy konferensiya materiallari

II QISM

Toshkent – 2023

UO'K 08
KBK 94

Mas'ul muharrir:

Muxamedov Gafurjon Isroilovich

Kimyo fanlari doktori, professor, O'zbekiston fan arbobi

Tahrir hay'ati:

O.D.Ziyadullayev, E.E.Simanyuk, J.E.Usarov, S.B. Malix, D.O.Ximmataliyev, T.N.Tixomirova, R.A.Ikromov, Serdar Serdar ugli, J.F.Ravshanov, A.A.Pecherkina, G.O.Ernazarova, D.E.Chernouxov, F.U.Qodirova, YU.V.Zapariy, N.X.Elmurzaeva, YU.E.Pyankova, SH.R.Samarova, A.P.Andropov, A.N.Rasulov, S.B.Qorayev, I.D.Qodirov, S.Gayupova, K.R.Mamadaliyev, A.S.Burnasov, N.J.Eshnayev, SH.E.Nurmamatov

Konferensiyaning maqsadi jamiyatda inson farovonligini oshirish muammolarini o'rganish va bu yo'lda izlanishlar iolib borayotgan tadqiqotchilarga amaliy yordam berish, ularni birlashtirishdan iborat. Insonning hayotda yashash darajasining sifat jihatidan o'sib borishi, raqamlashtirish jarayonlarining jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslarga ta'sirini o'rganishga fanlararo yondashuvni ishlab chiqishni nazarda tutadi. To'plamdan shaxs farovonligining psixologik, inson farovonligining demografik jihatlari, ijtimoiy-madaniy aspektlari, ta'lim inson farovonligining bosh omili ekanligi, mustaqil-ta'lim klasteri inson farovonligining asosi va raqamlashtirishning inson farovonligini ta'minlashdagi qulayliklari masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan. Kitob soha mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Ilmiy to'plam Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2023 yil 27 sentyabrdagi 02-sonli qo'shma yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. Ilmiy to'plam maqolalarida keltirilgan iqtibos va dalillar obyektivligi mualliflar zimmasida qoldiriladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

ISBN 978-9910-9966-6-5

© Zebo prints, 2023.

© Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" / BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrda 44/25-qarori; O'zbekiston respublikasi oliy kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757-XII-sonli "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilish haqida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi "Adolat" huquqiy axborot markazi.
2. Muminova L.R., Shomaxmudova R. Sh. Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion-rivojlantirish dasturining metodik asoslari. –T.: «Razzoqov O.J. bosmaxonasi». 2007.-27 b..
3. Korolevskaya T.K. Vidimaya rech– 3 // Defektologiya 1998. № 5. -s. 63.
4. Abdullayeva G.S. Maxsus va inklyuziv ta'limda AKTning o'rni. Monografiya. – T.: Mahalla va oila, 2022. – 179 b.
5. Abdullayeva G.S. The Impact of Modern Innovative Educational Technologies for The Environmental Education of Students with Hearing Impairments // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2022. May. ISSN 1475-7192. Volume 24. Issue 9. – P. 2380-2388 (Scopus).
6. Abdullayeva G.S. Nauchno-pedagogicheskiy klaster kak osnova formirovaniya inklyuzivnoy obrazovatelnoy sredy // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiruo'. Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnal. – Nukus, 2020. Maxsus son № 3. – B. 132-137 (13.00.00. № 20).
7. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: «Nihol», 2013. -275 b.
8. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.

13-14 YOSHLI O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNI HARAKATLI O'YINLAR YORDAMIDA TASHXISLASH

S.D.Abduraximov

(Toshkent viloyati, O'zbekiston)

CHDPU o'qituvchisi

abduraximovsardor906@gmail.com

Annotatsiya: 13-14 yoshli o'smirlarning deviant xulq atvorni harakatli o'yinlar yordamida tashxislash va korreksiyalash metodlarini qo'llash, o'quvchilarning jismoniy faoliyatini takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan. Muallif deviant xatti-harakati bo'lgan o'smirlarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib tadqiqot olib borgan. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, o'smirlarning deviant xatti-harakatlarini jismoniy tarbiya bilan tuzatish bo'yicha tavsiyalar berildi

Ka'lit so'zlar. Deviant, xulq atvor, nazorat testlar kompleksi, jismoniy tayyorgarlik, milliy va harakatli o'yinlar, maxsus jismoniy tayyorgarlik.

Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq me'yorlariga mos bo'lishi ularning komil inson bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi, ta'lim-tarbiya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bizning davrimizdagi huquqbuzarliklar tanqidiy vaziyatni kuchaytiradi, jamiyatda tashvish tug'diradi. Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarlar sonini to'ldirish manbai ko'pincha deviant xulq-atvorli o'spirinlardir.

Salbiy tendentsiyalar manbalarini, ularni kuchaytiradigan omillarni aniqlash, ularning namoyon bo'lish sabablarini bartaraf etish — bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalar, ularning echimi butun jamiyatning rivojlanishiga bog'liq. Shu munosabat bilan bugungi kunning eng muhim davlat vazifasi yosh avlodni tarbiyalash va tarbiyalash sohasida ijtimoiy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Deviant xatti-harakatlarning o'spirinlari turli xil sabablar va omillar tufayli juda murakkab hodisadir.

13-14 yoshli o'smirlarda deviant xulq-atvorni harakatli o'yinlar yordamida tashhislash va korreksiyalash ko'p bosqichli murakkab pedagogik jarayon bo'lib, mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashqil qilishni taqozo etadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar hajmi va shiddati shug'ullanuvchi bolalarning yoshi, jismoniy va funksional imqoniyatlariga moslab rejalashtirilishi va qo'llanilishi muhim. Ushbu mashqlar hajmi, shiddati, qaytirilishi va davom etish vaqti biologik qonuniyatlarga asoslanishi lozim. Agar mashqlar yuklamasi bolaning imqoniyatidan o'ta yuqori bo'lsa, bunday yuklama shu bolaning organizmiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Aksincha, yuklama imqoniyatdan kam bo'lsa shakllanish jarayoni sustlashishi muqarrar.

Ayrim murabbiy qisqa muddat ichida jismoniy sifatlarni rivojlantirishni jadallashtirish, tezroq malakali sportchi tayyorlash maqsadida maxsus va ixtisoslashgan mashqlarni zo'rma-zo'raki qo'llaydilar. To'g'ri, ayrim hollarda, ya'ni agar bolaning nasliy va individual jismoniy imqoniyatlari serzahira bo'lsa, bunday bola tez orada yaxshi sportchi bo'lib yetishishi mumkin. Ammo, aksariyat hollarda bunday katta yuklamali mashg'ulotlar bolaning tez charchashi, zo'riqishi, hatto uning kasallanishiga olib kelishi mumkin. Sport amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, bir-biriga o'xshash muntazam beriladigan mashqlar sport bilan endi shug'ullanishni boshlagan bolada iqishni so'ndiradi, unda sportga bo'lgan ixlos yo'qoladi, pirovardida u sport bilan shug'ullanmay qo'yadi. Shuning uchun yosh sportchilarni tayyorlashda, ayniqsa dastlabki o'rgatish bosqichida jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik-taktik mahoratni shakllantira borish uchun harakatli o'yinlardan foydalanish juda foydali va o'ta muhimdir. Murabbiy pedagoglardan yosh sportchilarni tayyorlashda harakatli uyinlardan foydalanish to'g'risida anketa surovnomasi utkazilib, olingan natijalar tahlil qilindi. Tahlil natijalari 3. jadvalda berilgan.

13-14 yoshli o'smirlarda deviant xulq-atvorni harakatli o'yinlardan (harakatli o'yinlar) foydalanish darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan savolnoma natijalari. n=30

	Savollar	a	o'q	Qi sman
.	O'quvchilarni sport to'garagiga tanlab olishda harakatli o'yinlardan foydalanasizmi?		0	4
.	Mashg'ulotlar davomida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida harakatli o'yinlardan foydalanasizmi?	4	6	0
.	Mashg'ulotning tayyorgarlik qismida harakatli o'yinlarni qo'llaysizmi?	1	3	6

.	Mashg'ulotning asosiy qismida harakatli o'yinlarni qo'llaysizmi?		8	9
.	Mashg'ulotning yakuniy qismida harakatli o'yinlarni qo'llaysizmi?		1	2
.	Sport tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlar foydalimi?	3		8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, savolnomada ishtirok etgan 30 nafar murabbiydan 6 tasi (20%) 1 savolga (o'quvchilarni sport to'garagiga tanlab olishda harakatli o'yinlardan foydalanasizmi?) "ha" deb javob berishgan bo'lsa, 20 tasi (66,7%) "yo'q" deb, 4 tasi (13,3%) esa "qisman" deb javob berdi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, tanlov jarayonida aksariyat murabbiy harakatli o'yinlardan umuman foydalanmas ekanlar. Ma'lumki, har bir sport turiga xos harakatli o'yinlar mavjud bo'lib, ulardan tanlov jarayonida foydalanish bolaning shu sport turiga xos harakat qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Muhimi shundaki, harakatli o'yinlar davomida muayyan harakat vazifasini hal etish ixtiyoriy ravishda mustaqil qaror qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Shu harakatni ijro etishda bolaga berilgan erkinlik imqoniyati undagi qobiliyatlarni namoyon etilishiga qulay vaziyat tug'diradi.

2-savolga (mashg'ulotlar davomida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida harakatli o'yinlardan foydalanasizmi?) 14 ta murabbiy (46,7%) "ha" va 16 ta (53,3%) "yo'q" deb javob berdilar. "Qisman" degan javob qayd etilmadi.

Demak, savolnomada ishtirok etgan murabbiyning deyarli teng ikki yarmi "Ha" va "Yo'q" deb javob berganliklari ularning ikki toifaga mansub pedagogik yondashuv asosida mashg'ulot o'tkazishlaridan darak beradi. Birinchilari – jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun harakatli o'yinlardan foydalanishsa, ikkinchilari – bu imqoniyatdan foydalanmay mashg'ulotlarda faqat standart va an'anaviy jismoniy mashqlardan foydalanadi deb xulosa qilish mumkin. Binobarin, ikkinchi guruh murabbiyi harakatli o'yinlar o'yinlarning o'ta muhim amaliy ahamiyatiga e'tibor qilmaydilar yoki, ehtimol harakatli o'yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishda samarali vosita deb bilmaydilar.

4, 5, 6, savollar mashg'ulotlarni o'tkazish, o'rgatish va sportchilarni tayyorlash jarayoniga bevosita aloqador bo'lib, murabbiyning kasbiy-pedagogik faoliyatida va xususan mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, respondent murabbiy "Mashg'ulotning tayyorgarlik qismida harakatli o'yinlarni qo'llaysizmi?" degan savolga 36,7% "Ha", 43,3% "Yo'q" va 20% "Qisman" deb javob berishdi.

Mashg'ulotning asosiy qismida faqat 3 tagina murabbiy harakatli o'yinlardan foydalanishlarini bildirdilar. Bu savolga 60% murabbiy "Yo'q" va 30% - "Qisman" deb fikr bildirishdi.

Mashg'ulotning yakuniy qismida esa harakatli o'yinlardan foydalanadigan murabbiy soni nisbatan ko'proq bo'ldi (43,3%). 30% murabbiy – "Yo'q" degan javobni bildirdilar. 26,7% respondentlar mashg'ulotning yakuniy qismida harakatli o'yinlardan qisman foydalanar ekanlar.

So'rovnoma davomida olingan natijalar va ularning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat respondent murabbiy yosh sportchilarni tayyorlashda,

ayniqsa jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan standart mohiyatiga ega umumiy yoki maxsus jismoniy mashqlarga ko'proq e'tibor qaratar ekanlar. U borada harakatli o'yinlarga qulay vosita sifatida ikkinchi darajali o'rin berilishi kuzatildi. Harakatli o'yinlar o'quv-trenirovka mashg'ulotlarida yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. Chunki o'yin shug'ullanuvchilarning qiziqishini oshiradi, ularga zavq baxishlaydi, ish qobiliyatini tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yin tufayli charchashni unutadilar, trenirovka mashg'ulotlarini diqqat bilan bajaradilar.

Hamma o'yinlar shug'ullanuvchilarning organizmlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy va maxsus jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi mashq sifatida qarash lozim.

Xulosa. Pedagogik tadqiqot davomida tadqiqot guruhida qo'llanilgan milliy harakatli o'yinlar va maxsus mashqlar o'rganilayotgan jismoniy sifatlarning samarali rivojlanishi mumkin ekanligini isbotlab berdi. 13-14 yoshli deviant xulq-atvorli o'smirlarning jismoniy tayyorgarligi, tezkorlik-kuch sifatlarining harakatli o'yinlar orqali ham rivojlanadi, hamda o'smir bolalarda xulq atvorini baholashga harakatli o'yinlar yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Kichkintoylarga 200 ta harakatli o'yinlar T.S. Usmonxo'jaev, M.Toirova, X.Sagdiev, T. Sharipov 2009 //Nashriyot: Yangi Asr Avlodi ISBN
2. Axrarova N.S., Abdukadirova S.G., DEVIANT XULQLI YOSHLAR BILAN ISHLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(1/2), Jan., 2023.
3. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры, Тошкент., Ибн Сино, 1991

INKLYUZIV SINF MUSIQA DARSLARINING O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Asadullayeva Mastura Abduvahabovna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
universiteti "San'atshunoslik fakulteti"*

*Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi
+99890 816-17-37 asadullayeva.cspu@gmail.com*

Ismailova Sevdaxon Muzaffar qizi.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"San'atshunoslik fakulteti" musiqa
ta'limi kafedrası 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda bolalarning holati, qobiliyatlari va fe'l-atvoridan qat'li nazar ularning muammolariga va sifatlari ta'lim olishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Maxsus e'tibor talab qiladigan bolalarni tarbiyalash va o'qitishda musiqiy va estetik rivojlanish muammosi bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyotda eng dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib, kundan-kunga o'sib bormoqda. Estetik tarbiya va rivojlanish

Тўйчиева Гулҳаё. Развитие индивидуальности студента с помощью методики коучинга	126
Усарова Н.Б. Образование на протяжении всей жизни как усовершенствованная форма непрерывного образования	128
Эрназарова Гулнора, Холматова Роза. Аутопедагогическая компетентность	130
Эрназарова Гулнора. Формирование акмеологического мышления у современного специалиста	133
Юлдашева Инобат. Характеристика педагогических конфликтов	136
V SHO'BA. MUSTAQIL-TA'LIM KLASITERI INSON FAROVONLIGINING ASOSIY OMILI SIFATIDA	
Abdullayeva G.S. Nogironligi bo'lgan talabalarda inklyuziv ta'lim kompetentligini shakllantirishda axborot kompyuter texnologiyalarning o'rni	140
Abduraximov S.D. 13-14 yoshli o'smirlarda deviant xulq-atvorni harakatli o'yinlar yordamida tashxislash	144
Asadullayeva Mastura, Ismailova Sevdaxon. Inklyuziv sinf musiqa darslarining o'quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati	147
Dehqonova Muborakxon. Individual ta'lim modeli	152
Egamberdiyeva Nigora. Ta'lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida	154
Z. K. Ismailova. D.Mustafaeva. Components of the gradual implementation of student media activities in the educational process	159
Ibadullayeva Sh.N. Yetuk mutahassis bo'lib yetishishda pedagogik amaliyotning o'rni	176
Ishmatova O. S. “Faol harakat-xalq salomatligi garovi” ijtimoiy loyihasida pedagogik ta'lim innovatsion klaster	179
Ibroximov F.A. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lim klasteri asosida ijodiy yondashish	183
Ibadullayeva Sh.N., F.A.Safarova. Talabalarni kasbiy amaliyotga erta va maqsadli tayyorlash	186
Jabborova Onaxon, Saparbayeva Dinora. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'lim klasteri metodikasi	189
Jabborova Onaxon. Boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish mexanizmlari	191
Kobilova Shaxnoza. Inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalarini muvofiqlashtirish masalalari	194
Kobilova Shaxnoza, Abduraximova Durdona, Boboxonova Madina. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar faolligini ta'minlashda inklyuziv ta'limning o'rni	196